# BUXORO VILOYATI OLOT TUMANIDA 2021-2023-YILLARDA AMALGA OSHIRILGAN TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISH JARAYONI

***Ilhom Axatqulov, Javohir Nurullayev, Navruzbek Shukurov***
*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti,*
*" Moliya" fakulteti 87-guruh talabalari*

***Annotatsiya:*** *Buxoro viloyati Olot tumanida so'ngi yillarda amalga oshirilayotgan tashabbusli byudjetlashtirish jarayoni, uni amalga oshirish mexanizmi va moliyalashtirish amaliyoti yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *mahalliy byudjet, taklif berish, mablag' ajratish, moderatsiya, ovoz berish, g'olib loyihani aniqlash, pudratchini aniqlash, shartnoma tuzish.*

So'ngi yillarda mamlakatimizda mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan jamoatchilik fikri asosida loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda. Shu jumladan, Buxoro viloyati Olot tumanida ham bu ishlar jadal suratlarda amalga oshirilmoqda.

Biz tashabbusli budjet natijalarini 2021-2023-yillarda Buxoro viloyati Olot tumanida tashabbusli budjetlashtirish jaryonini o'rgandik va tahlil qildik. Yuqoridagi jadvalda tashabbusli budjetlashtirish jarayonida Buxoro viloyati Olot tumanida 2021-yil tashabbusli byudjetlashtirish uchun 1 802 500 ming so'm o'tkazilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 15 624 000 ming so'mni tashkil qilgan. 2021-yil boshiga qoldiq yoq 2022-yil esa yil boshiga qoldiq 417 500 ming so'mni, 2023-yil 899 700 ming so'mni tashkil qilgan.

Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar 2021-yil 1 802 500 ming so'mni, 2022-yil 9 178 400 ming so'mga oshganini, 2023-yilda esa 15 624 000 ming so'mga oshganini ko'rishimiz mumkin.

**1-jadval**

**Buxoro viloyati Olot tumani tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdori[1]**

(ming so'mda)

| T/r | Ko'rsatkich nomi | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Yil boshiga qoldiq | 0 | 417 500 | 899 700 |
| 2. | Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar | 1 802 500 | 9 178 400 | 15 624 000 |
| 3. | "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan | 1 385 000 | 8 678 900 | 14 767 700 |

[1] https://openbudget.uz/boards/reports

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 3.1. | *Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag‘* | 1 352 800 | 7 438 400 | 14 014 700 |
| 3.2. | *Hisobvaraqlardagi qoldiq* | 0 | 1 240 400 | 753 100 |
| 4. | “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da qoldiq mablag‘ | 417 500 | 917 100 | 1 756 000 |

2021 yilda Olot tumani Fuqarolar tashabbusi jamg’armasiga 1 802 500 ming so’m ajratilgan. Ajratilgan mablag’ning 1 385 000 ming so’mi tadbirlarni moliyalashtirish uchun sarflangan.

Ajratilgan mablag’ning 417 500 ming so’mi esa jamg’armada qoldiq sifatida qolgan. 2022 yilda esa Fuqarolar jamg’armasiga o’tkazilgan mablag’lar 2021 yilga nisabatan 5 barobar ko’p bo’lgan 2021 yildagi qoldiq mablag’ ham 2022- yil uchun yil boshidagi qoldiqsifatida qo’shilgan.

Bajarilgan ishlar uchun moliyalashtirilgan mablag’lar ham 2021- yilga nisbatan 6 barobarga ko’p ya’ni 7 438 400 ming so’mni tashkil etgan. 2022 yildagi qoldiq mablag’ esa 917 100 ming so’mni tashkil qilgan. 2023- yildagi ko’rsatkichlar esa o’tgan ikki yilga nisbatan ancha baland.

2023- yilda tashabbusli byudjet loyihasiga 15 624 000ming so’m mablag’ ajratilgan. Bu 2022- yilga nisbatan 2 barobar, 2021- yilga nisbatan 9 barobar ko’p miqdorda tashabbusli byudjet loyihalari amalga oshirilganligini anglatadi.

**2-jadval**

**Buxoro viloyati Olot tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar[2]**

| T/r | Tadbirlar nomi | Moliyalashtirilgan takliflar soni | | | Sarflangan mablag’ (ming so‘mda) | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
| **Jami** | | **5** | **8** | **14** | **1 352 795,6** | **8 678 900** | **14 767 700** |
| 1. | Hududiy ichki yo‘llar | 1 | 4 | 4 | 950 872,2 | 4 680 000 | 5 160 000 |
| 2. | Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va jihozlash | 1 | 3 | 5 | 199 746,8 | 2 798 900 | 4 920 000 |

[2] https://openbudget.uz/boards/reports

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 3. | Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash | | | | | | |
| 4. | Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash | | | 1 | | | 1 200 000 |
| 5. | Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash | | | | | | |
| 6. | Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash | | | | | | |
| 7. | Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari | 3 | | | 202 176,6 | | |
| 8. | Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish) | | | 3 | | | 2 287 700 |
| 9. | Boshqa tadbirlar | | 1 | 1 | | 1 200 000 | 1 200 000 |

Quyidagi jadvalda Buxoro viloyati Olot tumanidan uch yil davomida tashabbusli byudjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalarni ko'rishimiz mumkin. 2021-yilda qiymati 1,3527 mlrd so'mlik 5 ta loyiha amalga ohirilgan.Eng ko'p loyihaHududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish)hissasiga to'g'ri kelmoqda. Qolgan 2 ta loyiha Hududiy ichki yo'llar va Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash loyihalari hisoblanadi.

2022- yilda 8 loyiha amalga oshirilgan bo'lib, mahalliy byudjetdan 8,6789 mlrd so'm mablag' ajratilgan. 2022- yilda amalga oshirilgan loyihalar qiymati 2021-yilga nisbatan katta bo'lgan shu sabali loyihalar soni ko'proq bo'lgan va sarflangan mablag' ancha yuqori. 2022- yilda Hududiy ichki yo'llar va Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash loyihalari 4 va 3 taga oshgan va 4,680va2,798mlrd so'm mablag' ajratilgan.2023-yilda esa qiymati **14,767**mlrd so'mlik 14 ta loyiha amalga oshirilgan. Ajratilgan mablag'lardan asosan Hududiy ichki yo'llar va Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash loyohalari moliyalashtirilgan. 2022-yilda Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish) sohasida ham 3ta loyihamoliyalashtirilgan va 1,2 mlrd so'm mablag' ajratilgan. 2022-2023-yillarda Boshqa tadbirlarga 1,2mlrd so'mlik 2ta loyiha amalga oshirilgan.

**3-jadval**

**Buxoro viloyati Olot tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari**[3]

(ming so'mda)

| Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari | | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
|---|---|---|---|---|
| Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar | | | 5 898 600 | 7 400 600 |
| Mahalliy budjetining yil boshiga shakllangan Erkin qoldiq mablag'lari | | | 545 900 | 1 358 900 |
| Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar | | | 188 600 | |
| Shu jumladan | Erkin qoldiq mablag'lari | | 155 913 | 590 300 |
| | Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi | | 357 300 | 768 600 |
| | Iqtisod qilingan mablag'lar | | 333 900 | 1 131 600 |
| Qo'shimcha ajratilgan | Viloyat mahalliy byudjetining qo'chimcha manbalarining 30 foizi | | | **4 732 900** |
| | Qoshimcha g'oliblarni aniqlash va moliyalashtirish maqsadida | | | **1 000 000** |
| | PQ-409ga asosan | | | |
| | PQ-117ga asosan | | | |
| **Jami ajratiladigan mablag'lar** | | | **9 178 300** | **15 624 000** |

Yuqorida berilgan jadvalda 2022-2023-yillarda Buxoro viloyati Olot tumanida fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari keltirilgan. Shunga ko'ra 2022-yilda tuman mahalliy byudjeti qo'shimcha mablag'larining 30 foizi miqdorida ajratiladigan mablag'lar 545 900 ming so'm bo'lgan. 2022-yilda iqtisod qilingan mablag'lar miqdori 333 900 ming so'mni tashkil qilgan va jami bo'lib, 2022-yilda fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga ajratilgan jami mablag'lar 9 178 300 ming so'mga yetgan. 2023-yilga kelib, tuman mahalliy byudjeti qo'shimcha manbalarining 30 foizi miqdorida ajratilgan mablag'lar 1 358 900 ming so'mni tashkil qilgan va iqtisod qilingan mablag'lar 132 799.8 ming so'm bo'lgan. 2023-yilda fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga ajratilgan mablag'larga viloyat mahalliy byudjetining

[3] https://openbudget.uz/boards/reports

qo'shimcha manbalarining 30 foizi ya'ni 4 742 900 ming so'm va qo'shimcha g'oliblarni aniqlash va moliyalashtirish maqsadida 1 000 000 ming so'm ajratilgan bo'lib, 2023- yilda fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga ajratilgan jami mablag'lar 15 624 000 ming so'm bo'lgan.

**4-jadval**

**Buxoro viloyati Olot tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilhan loyihalar tarkibi** [4]

| T/r | Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi) | Jami to'plagan ovozlar soni | Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori( ming so'mda) |
|---|---|---|---|
| **2021-yilda** | | | |
| 1 | 16-umumiy o'rta ta'lim maktabi derazalarini almashtirish | 1 595 | 189 796,765 |
| 2 | ''O'zbekiston'' MFY dagi ko'cha chiroqlarini o'rnatish | 800 | 88 717,463 |
| 3 | ''Denov'' MFY dagi yo'llariga tungi chiroqlar o'rnatish | 505 | 63 547 |
| 4 | ''Muxtor''MFY ichki yo'llarini asphalt qilish – ta'mirlash | 290 | 950 872,24 |
| 5 | ''Xalifa'' MFYdagiDo'stlikko'chasigatungichiroqlaro'rnatish | 113 | 49 912,149 |
| **2022-yilda** | | | |
| 1 | '' Kesakli '' MFY da TIP-2 ko'rinishida ''Sport majmuasi''ni qurish | 8 392 | 25 900 |
| 2 | ''Dilkor'' MFYsining Mirobod qishlog'idagi ichki yo'llarni asfallashtirish | 8 220 | 1 190 000 |
| 3 | ''Dilkor'' MFYsining Bayramhoji qishlog'idan Qo'ng'irot qishlog\igacha bo'lgan ichki yo'llarni ta'mirlash | 6 712 | 1 174 500 |
| 4 | ''Jayhunobod'' MFYsining ichki yo'llarini ta'mirlash | 3 813 | 1 186 500 |
| 5 | *Olot tuman XTBga qarashli 16-maktabni mukammal ta'mirlash* | 3 787 | 578 600 |

[4] https://openbudget.uz/boards/reports

| | | | |
|---|---|---|---|
| 6 | Shayxlar MFY 16-son maktabga borishdagi 1450 metr yo'lni asfalt qilish | 3 415 | 246 000 |
| 7 | Olot tumani 22-maktab uchun 200 o'rinli faollar zali qurish | 3 379 | 10 800 |
| 8 | Olot tumani 27-maktabga 100 o'rinli qo'shimcha bino qurish | 1 780 | 8 700 |
| **2023-yilda** | | | |
| 1 | Burjoq MFYsi Yangiyo'l ko'chasining ichki yo'llarini asfaltlashtirish | 8 252 | 1 320 000 |
| 2 | Olot tumani Dilkor MfY Qo'ng'irot qishlog'I ichki yo'llarini joriy ta'mirlash | 7 926 | 1 320 000 |
| 3 | Olot tumani 10- umumta'lim maktabiga 120 o'rinli qo'chimcha bino qurish | 6 243 | 1 122 000 |
| 4 | 7-maktabning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va o'quvchilarning sifatli ta'lim olishlari uchun eng zamonaviy sharoitlarni yaratish quyosh panel | 5 726 | 1 233 700 |
| 5 | Tuman SEO va JSB hududida parazitologiya labaratoriyasi uchun qo'chimcha bino qurish | 5 567 | 1 141 300 |
| 6 | Xidreyli mahallasi hududidan o'tuvchi sug'orish 2 km ariqlarni betonlashtirish | 5 531 | 666 700 |
| 7 | Olot tumqan 17-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabini joriy ta'mirlash | 5 252 | 757 000 |
| 8 | 16-son umumta'lim maktabi hududidan zamonaviy futbol maydoni qurish – zamonaviy maysali kamida 22x42 hajmdagi | 5 052 | 575 500 |
| 9 | Dilkor mahallasi Dilkor qishlog'ining ichki yo'llarini asfaltlashtirish | 4 443 | 1 320 000 |
| 1 | Kesakli mahallasida aholi tomorqalari va fermer xo'jaliklari yerlarini doimiy suv bilan ta'minlash maqsadida Amu-Buxoro-1 kanalidan Kesakli arig'iga suv quyuvchi 1 ta suv nasosiga QUYOSH PANELLARI – batareykalari o'rnatish | 4 037 | 1 200 000 |
| 1 | Qo'rchi qishlog'i arig'ini betonlashtirish - asfaltlashtirish | 3 315 | 422 900 |
| 1 | Xosabo'yi MFY hududidagi ariqning 3 km joyini betonlashtirish | 2 721 | 779 900 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | Umumiy 4 ta mahallaning 15 mingdan ortiq fuqarolari foydalanadigan umuman yurishga yaroqsiz bo’lgan qabriston yo’lini asfalt qilish | 2 393 | 1 200 000 |
| 1 | Tumandagi 3-sonli umumta’lim o’rta maktabining ta’mirtalab qismlarini mukammal ta’mirlash | 2 201 | 955 700 |

Yuqoridagi jadvalda berilgan ma’lumotlar shuni ko’rsatadiki, 2021-yilda Buxoro viloyati Olot tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida 5ta loyiha amalga oshirilgan bo’lib, ulardan birinchi o’rinda 16-umumiy o’rta ta’lim maktabi derazalarini almashtirish loyihasi 1 595 ta ovoz to’plab g’olib bo’lgan va bu loyihaga 189 796,765 ming so’m ajratilgan. Keyingi o’rinlarda esa MFY larida amalga oshirilgan ishlar tashabbusli byudjetjashtirish jarayonida g’olib bo’lgan va bulardan ‘’O’zbekiston’’ MFY dagi ko’cha chiroqlarini o’rnatish loyihasi 800 ta ovoz to’plab eng katta ko’rsatkichni tashkil qilgan va bu loyihaga 88 717,463 ming so’m mablag’ ajratilgan. Qolgan 3 ta MFYlardagi loyihalar esa jami 908 ta ovoz to’plagan va ajratilgan jami mablag’lar 1 064 331,39 ming so’mni tashkil qilgan.

2022-yilda ovozlar onlayn va sms orqali aniqlangan. Jami 8ta loyiha g’olib bo’lgan va ovozlar soni ham 2021-yilga nisbatan ancha oshgan. Misol uchun 2ta loyiha 8 200 tadan ziyod va 5ta loyiha 3 350 tadan ziyod ovoz to’plagan. Bu o’tgan yilga solishtirganda ancha yuqori ko’rsatkich hisoblanadi va bundan ko’rinib turibdiki odamlarni jalb qilish darajasi ancha yaxshilangan. Shu loyihalardan eng yuqori o’rinda ” Kesakli ‘’ MFY da TIP-2 ko’rinishida ‘’Sport majmuasi’’ni qurish 8 392 ta ovoz bilan g’olib bo’lgan va bu loyihaga 25 900 ming so’m mablag’ ajratilgan. Ayni shu yilda eng kam ovoz to’plab g’olib bo’lgan loyiha tumandagi 27-maktabga 100 o’rinli qo’shimcha bino qurish 1 780 ta ovoz to’plagan va bu loyihaga 8 700 ming so’m mablag’ ajratilgan. Qolgan 6 ta loyihaning umumiy to’plagan ovozlar soni 29 326 tani tashkil qilgan va bu loyihalarga jami 4 386 400 ming so’m mablag’ ajratilgan. 2022-yilda MFYlarda amalga oshirilgan ishlar uchun ajratilgan mablag’lar jami mablag’larning katta qismini tashkil qilgan.

2023-yilda umumiy 14 ta loyiha amalga oshirilgan va bulardan 2 tasi Burjoq MFYsi Yangiyo’l ko’chasining ichki yo’llarini asfaltlashtirish va tumani Dilkor MFY Qo’ng’irot qishlog’i ichki yo’llarini joriy ta’mirlash loyihalarimos ravishda 8 252 ta va 7 926 ta eng ko’p ovoz to’plab g’olib bo’lishgan. Bu 2 ta loyihalarga bir xil mablag’ ajratilgan, ya’ni har biriga 1 320 000 ming so’mdan mablag’ ajratilgan. Bu yilda maktablarda va MFYlarda loyihalar soni ancha ko’paygan. Shu jumladan, Dilkor mahallasi Dilkor qishlog’ining ichki yo’llarini asfaltlashtirish 4 443 ta va Olot tumani 10- umumta’lim maktabiga 120 o’rinli qo’chimcha bino qurish 6 243 ta ovoz to’plab yuqori o’rinlarda g’olib deb topilgan. bo’lgan. Bundan ko’rinib turibdiki odamlarni faolligi yildan yilga yaxshilanib kelmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Buxoro viloyati Olot tumanida tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar soni, loyihalarga ajratilgan mablag'lar yildan yilga ortib borgan va bu o'z navbatida aholini faollashishiga olib kelgan. Oxirgi yilda fuqarolar tashabbusli byudjet jarayonida faol qatnashayotganligi va unga befarq bo'lmayotganligi bu loyihalarning ahamiyatini ko'rsatadi. Bu amalga oshirilayotgan loyihalar aholi uchun dolzarb bo'lgan loyihar hisoblanadi va buning natijasida aholi turmish darajasi yaxshilanib boradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:"Шарқ. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O'quv qo 'llanma." Toshkent:"Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
4. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo 'llanma, Toshkent:"IQTISOD-MOLIYA. 2007.
5. Маликов ТС. Ҳайдаров НҲ "Молия: умумдавлат молияси". Ўқув қўлланма. 2009.
6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:"Iqtisod-moliya. 2019.
7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
8. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma, Toshkent "IQTISOD-MOLIYA. 2008.
9. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017
10. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
11. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022
12. Ўроқов У, Иргашев И, Ғайбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
13. UY O'roqov, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary …, 2022
14. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
15. Ўроқов У. Ғайбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press. 2016.
16. Уроков У. Махаллий бюджетлар мустакиллигини оширишга оид назарий карашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.

17. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақилигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
21. У Ўроқов.Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари.- Science and Education, 2023
22. G‘aybullayev O, O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo ‘llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
23. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
24. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.
25. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления.“Молия” илмий журнали. 2022.
26. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
28. Masharipov I.B. MODERNIZATION OF THE ELECTORAL SYSTEM IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY. The Way of Science International scientific journal. 2020. 6 (76)